



Bolalar Muqaddas Kitobi

Tasvirlab beradi

Hudovand barcha
narsani yaratdi



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes
...tomonidan ilustrasiya qilingan:
Byron Unger; Lazarus
...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
Bob Davies; Tammy S.
...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org


BFC
PO Box 3
Winnipeg, MB R3C 2G1
Canada

©2012 Bible for Children, Inc.


Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusha ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.




Bizni Kim yaratdi. Hudoning Kalomi Injilda odamzotning yaratilishi hikoya qilingan. Qadim zamonda Hudo birinchi odamni yaratdi va uni Odamato deb atadi.



Hudovand uni yer tuprog'idan yaratdi. U odamatoning dumog'iga hayot nafasini pufladi va Odamato hayot bo'ldi. U o'zini chiroyli Adan bo'gida ekanligini angladi.




Hudovand Odamatoni yaratishdan oldin, U dunyoni ajoyib narsalar bilan to'ldirdi. Hudovand birma bir tog'li tepaliklar, dashtli yovonlar, hushbo'y o'simliklar, va baland daraxtlar, uchadigan qushlar, vizillaydigan asalarilar, suzadigan baliqlar, va silg'anchiq qurtlarni yaratadi.



Umuman olganda Hudovand dunyodagi barcha narsalarni yaratdi.

Azalda, Hudo dunyoni yaratishdan oldin, yer yuzida hech narsa mavjud bo'lmagan, yagona Hudoning Ruhi yer yuzi bo'ylab parvoz etgan.

Na odamlar, na yorug'lik, na qorong'ulik, na tepaliklar, na chuqurliklar, na kecha, va na erta mavjud bo'lgan. Faqat Hudovand bor bo'lgan.



Azalda Hudo osmon bilan yerni yaratdi.




Yer shaklsiz va bo'm
bo'sh bo'lgan. Va
tubsizlik uzra
qorong'ulik
hukm surgan.


Hudo:
"yorug'lik
bo'lsin" -
dedi.




Va yorug'lik paydo bo'ldi. Hudo yorug'likni kunduz,
va qorong'ulikni esa tun deb atadi. Kech bo'ldi va
erta bo'ldi - bu birinchi kun edi.



Ikkinchi kunda Hudo osmon ostidagi okean, dengiz, va ko'llardagi suvni bir joyda to'pladi. Uchinchi kunda Hudo: "quruqlik ko'rinsin" - dedi va shunday ham bo'ldi.



Yana Hudo: "yer o'simlik ko'kartirsin" - dedi va
shunday ham bo'ldi. Kech bo'ldi, erta
bo'ldi bu uchinchi
kun edi.




Keyin Hudo quyosh, oy va
osmonda sanab bo'lmaydigan
yulduzlarni yaratdi. Kech
bo'ldi, erta bo'ldi - bu
to'rtinchi kun edi.



Keyin Hudo Suvdagi jonivorlar, baliqlar, osmondagi qushlarni yaratdi. Beshinchi kunda U qilichli baliq va jajjigina sardin balig'ini, shuningdek uzun oyoqli tuya qushlarni va kichkinagina g'uvillaydigan qushchani yaratdi. U biz rohatlana olishimiz uchun, dengiz suvini har hil baliqlar bilan to'ldirdi, va osmonda turli hil qushalrni yaratdi. Kech bo'ldi, erta bo'ldi - bu beshinchi kun edi.



Shundan keyin: "yer turli tuman tirik
jonivorlar, chorva, sudraluvchi hamda hamda yovvoyi
hayvon turlarini hosil qilsin' - dedi. Shunday ham
bo'ldi. Yer yuzida fil, ayiq kabi bahaybat hayvonlar,
zararkunanda maymun, timsohlar, Uzun bo'yli jiraf
va hurillaydigan mushuklar paydo bo'lishdi. Hulas
turli tuman hayvonlar Hudo tomonidan yaratildi.
Kech bo'ldi va erta bo'ldi - bu oltinchi kun edi.




Hudo oltinchi kunda yana maxsus bo'lgan bir narsani yaratdi. Hamma narsa Odamoto uchun tayyor bo'ldi.

Hudo: "O'z suratimizga ko'ra O'zimizga o'hshash odamni yarataylik, u dengizdagi baliqlar, ko'k yuzidagi parrandalar, va yerda harakat qiluvchi barcha mahluqot ustidan hokimlik qilsin" - dedi. Shunday ham bo'ldi, Hudo Odamni O'z suratida yaratdi.



Hudo Odamatoga
buyurib dedi: "Sen
bu bog'ning har
bir darahtidan
yeyavergin. Faqat
yahshi va yomonni
bilish darahtidan
yema. Chunki undan
yegan kuniyoq
o'lasan."




Yana Hudovandi Karim: "Odamning yolg'iz bo'lishi yahshi emas, endi unga munosib madadkor yarataman" - dedi. U Odamatoning oldiga har hil hayvonlar va parrandalarni keltirdi. Odam hamma chorva hayvonlariga va parrandalarga ot qo'yib bo'ldi ammo odamga muvofiq madadkor topilmadi.



Shunda Hudovand odamni qattiq uyquga mubtalo qildi. Odam uhlab qolgach, uning qovurg'alaridan bittasini oldi va o'rnini et bilan qopladi.

Odamni qovurg'asidan bir hotin barpo qilib, uni odamning oldiga olib keldi.



Hudovandi Karim hamma narsani olti kunda yaratdi. Va yettinchi kunni muborak va muqaddas qilib ayirdi va U O'zining butun yaratish faoliyatidan tinib dam oldi. Odamato bilan Momohavo Adan bog'ida Hudoga itoat qilib mukammal er va hotin bo'lib yashadi. Hudovand ularning Boquvchisi, va Dos'ti edi.



Hudovand barcha narsani yaratdi
Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan
...dan topilgan

Ibtido 1-2

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130





Hikoya tugadi



1



60



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16

